
Sektor rahbarlari va yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi

Buvayda tumani madaniyat markazida navbatdagi "Sektor rahbarlari va yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi. Ochiq muloqat tarzida o'tgan uchrashuvni tuman hokimi Behzodjon Ibragimov ochib berdi. B.Ibragimov hozirgi kunda yurtimizda muhtaram Prezidentimiz tamonidan berilayotgan imkoniyatlar va sharoitlar haqida to'xtalib o'tdi. Dastlab Rossiyaning Qozon shahrida bo'lib o'tgan VI BRIKS xalqaro o'yinlari doirasida belbog'li kurash bo'yicha ???o'rinni qo'lga kiritgan Ozodbek Abdusattorovni g'alaba bilan tabrikladi.

Uchrashuvda 90 dan ortiq yoshlar o'zlarining murojaat va takliflari bilan ishtirok etishdi. Muloqot davomida bildirilgan takliflarga asosan joriy yil davomida Buvaydalik yosh ijodkorlarning she'rlari kitob bo'lib chiqadigan bo'ldi. Shuningdek, yoshlar o'z yashash hududlaridagi maktab va sport maydonchalarini zamonaviy texnikalar bilan jihozlash masalalarida murojaat qilishdi

2024-07-19 11:58:13